



**“TASDIQLAYMAN”**

“Qarshi MTU” filiali boshlig‘i

\_\_\_\_\_ M.X.Mirzayev

**“Qarshi vagon ekspluatatsiya uchastkasi” filialida “Korrupsiya taraqqiyot kushandasi” mavzularida o‘tkazilgan profilaktik targ‘ibod tadbir**

**BAYONNOMASI**

**01.05.2026-yil**

**№ 263**

**Qarshi shahri.**

**Raislik qildi:**

“Qarshi MTU” filiali etakchi yuristikonsulti  
B.G‘oimov

“Qarshi MTU” filiali Xodimlar va ijtimoiy  
masalalar bo‘limi boshlig‘i R.N.Xidirnazarov

“Qarshi MTU” filiali Korrupsiyaga qarshi kurashish  
bo‘yicha mutahassisi M.Sh.Rashidov

**Qatnashdilar:**

“Qarshi vagon ekspluatatsiya uchastkasi” filiali  
boshlig‘i J.Bozorov va ishchi-xodimlar - 36 nafar

**KUN TARTIBI:**

**“Korrupsiya taraqqiyot kushandasi”** mavzularida o‘tkazilgan profilaktik targ‘ibod tadbir bo‘yicha.

“Temiryo‘linfratuzilma” AJ “Qarshi vagon ekspluatatsiya uchastkasi” filialida **“Korrupsiya taraqqiyot kushandasi”** mavzularida profilaktik targ‘ibod tadbiri o‘tkazildi.

Tadbirda “Qarshi mintaqaviy temir yo‘l uzeli” filialining etakchi yuristikonsulti B.G‘oimov tomonidan, so‘ngi paytlarda insoniyat tarixida davlatlar shakllangandan buyon korrupsiya ularni ichdan yemiradigan ijtimoiy illat sifatida vujudga keldi, hokimiyat va boylik uchun hirslar ta‘sirida rivoj topdi. Hozir avj olib borayotgan globallashuv jarayonida bu dahshatli illatning bir davlat emas butun bir mintaqaga yoki jahon taraqqiyotiga tahdid soluvchi turi-xalqaro korrupsiya paydo bo‘ldi. U demokratiya va huquq ustivorligi asoslariga putur yetkazadi, inson

huqularining qo‘pol ravishda buzilishiga olib keladi, iqtisodiy rivojlanishni izdan chiqaradi, jamiyat va davlat uchun o‘ta xavfli bo‘lgan uyushgan jinoyatchilik va terrorizmning keng yoyilishiga sharoit yaratib beradi.

O‘zbekiston Respublikasining 24.11.2016 yildagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish” qonuni 6-bob, 38-moddasidan iboratligini, qonunning asosiy maqsadi korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish ekanligini, **korrupsiyaning o‘zi nimaligini tushunib, bilib olishimiz lozim.**

Korrupsiya so‘zi-lotinchacha “pora berib sotib olish” ma‘nosini anglatib, mansabdor shaxslar tomonidan ularga berilgan huquq va imkoniyatlardan shaxsiy boylik orttirish maqsadida foydalanishni siyosiy yoki davldavlat boshqaruvi sohasidagi jinoiy faoliyat tushuniladi.

Pora berish dunyoning barcha dinlari tomonidan ham qoralangan. Jumladan, Qur‘onda: “Bir-birlaringizning mulklaringizni nohaq o‘zlashtirib olmanglar va boshqalarning mulkini o‘zlashtirish niyatida qozilarga ribo bermanglar”,-deyilgan.

BMTning xalqaro miqyosida korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha ma‘lumotida shunday deyilgan “Korrupsiya-bu shaxsiy maqsadlarda naf ko‘rish uchun davlat hokimiyatini suiiste‘mol qilish”. Korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi eng asosiy xalqaro hujjat bu-shubhasiz, BMTning Korrupsiyaga qarshm konvensiyasi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi mazkur xalqaro hujjatga qo‘shilgan: O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlis Qonunchilik palatasi tomonidan “BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga O‘zbekiston Respublikasining qo‘shilishi to‘g‘risida”gi Qonun 2008 yil 24 iyunda qabul qilindi va 2008 yil 27 iyunda O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Senati tomonidan ma‘qullandi va 2008 yil 28 avgustdan e‘tiboran kuchga kirdi.

Korrupsiya jinoyatlariga oid normalarda jinoyat predmeti sifatida faʼriyat moddiy xususiyatdagi manfaatlar ta‘kidlanadi (masalan; pul, bkyum, moddiy qiymatliklar va hokozolar), lekin qonunda moddiy boyliklardan tashqari qonun bilan qo‘riqlanadigan huquq va manfaatlarga jiddiy zarar ziyon, haqida ham gapiriladi. Boshqaruv tartibiga qarshi korrupsiya jinoyatlarida harakat aynan g‘ayriqonuniy bo‘lishi kerak va bu xizmat vazifalarining bajarilishi bilan aloqador bo‘lishi lozim. Aksariyat hollarda mansabni suiiste‘mol qilinganida uning huquqqa xiloflik xususiyati yaqqol namoyon bo‘ladi, sababi bu harakatlari ayrim qonun normalaring buzilishi bilan sodir etiladi. Masalan, nazorat yoki taftish organlari xodimlar talon-tarojni ataylab yashiradilar, aniqlangan kamomadni taftish dalolatnomalarida ko‘rsatmaydilar, korxonalar rahbarlari g‘araz maqsadlarda moliyaviy yoki shtat intizomini buzadilar.

Muxtasar qilib aytganda, Korrupsiya-jamiyat taraqqiyoti uchun juda havfli jinoyat bo‘lib, u nafaqat xufyona, balki korrupsiyaga doir munosabatlarga kirishgan tomonlarning o‘zaro kelishuviga binoan sodir etiladi. Aksariyat hollarda u tegishli

hokimiyat organlariga shikoyat berilishiga sabab bo'lmaydi, chunki g'ayriqonuniy kelishuvdan ikkala tomon ham naf ko'rishi haqida ma'lumotlarni berib o'tdilar.



NUB1739



Bayonnomani tuzuvchi:

A handwritten signature in blue ink, appearing to be 'M. Rashidov', is written over a light blue rectangular background.

M.Rashidov

NUB1739

NUB1739

NUB1739

NUB1739

NUB1739